



Cultural verbalization of the concepts of honesty and theft in English and Uzbek languages

Durdona MAKHKAMOVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

10 May 2025

Accepted 2 April 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

linguoculture,

concept,

antonymy,

honesty,

theft,

verbalization,

semantics,

stylistics.

ABSTRACT

This article investigates the linguocultural characteristics of the antonymous concepts "honesty" and "theft" in English and Uzbek languages. In both languages, these concepts are widely employed as criteria defining human morality and social values. The article presents a comparative analysis of the synonymous series, semantic fields, and antonymic relationships of these concepts, as well as their usage in literary, journalistic, and oral discourse. Additionally, their etymological roots and representation in folklore are examined. The research findings illuminate the similarities and national-cultural distinctions of these antonymous concepts within the cultural linguistic landscape of English and Uzbek.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp325-329>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Halollik va o'g'rilik konseptlarining ingliz va o'zbek tillardagi madaniy verbalizatsiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

lingvomadaniyat,

konsept,

antonimiya,

halollik,

o'g'rilik,

verbalizatsiya,

semantika,

stilistika.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "halollik" va "o'g'rilik" antonim konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etilgan. Har ikki tilda ushbu konseptlar inson axloqi va ijtimoiy qadriyatlarini belgilovchi mezon sifatida keng qo'llanadi. Maqolada konseptlarning sinonimik qatori, semantik maydoni, antonimik munosabatlari hamda badiiy, publitsistik va og'zaki nutqda qo'llanishi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, ularning etimologik ildizlari va xalq og'zaki ijodida ifodalanishi ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek madaniy til manzarasida ushbu antonim konseptlarning o'xshashliklari va milliy-madaniy tafovutlarini yoritadi.

¹ Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages.

Культурная вербализация концептов честности и воровства в английском и узбекском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

лингвокультура,
концепт,
антонимия,
честность,
воровство,
вербализация,
семантика и стилистика.

В статье исследуются лингвокультурные особенности антонимических концептов «честность» и «воровство» в английском и узбекском языках. В обоих языках данные концепты функционируют как ключевые категории, формирующие моральные и социальные ценности. Рассматриваются синонимические ряды, семантические поля, антонимические отношения, а также их употребление в художественной, публицистической и устной речи. Кроме того, анализируются этимологические корни концептов и их отражение в фольклоре. Результаты исследования показывают как универсальные сходства, так и национально-культурные различия в концептуализации и вербализации данных антонимических понятий в английской и узбекской языковых картинах мира.

KIRISH

Til insoniyatning eng ulug' ixtirolaridan biri bo'lib, nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixi, madaniyati va axloqiy qadriyatlarini saqlovchi qudratli ijtimoiy-madaniy hodisadir. Har bir xalq o'z madaniyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlarni til orqali ifodalaydi, mustahkamlaydi va avloddan-avlodga yetkazadi. Shuning uchun ham tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro aloqadorligini, til birliklari orqali milliy mentalitetning qanday ifodalanishini chuqur tadqiq etadi.

Lingvomadaniyat doirasida tadqiq qilinadigan asosiy tushunchalardan biri bu – konseptdir. Konsept so'zdan kengroq bo'lib, til, ong va madaniyat kesishgan nuqtani ifodalaydi. U inson tafakkurida ma'lum bir obraz yoki tushuncha sifatida shakllanadi va til birliklari orqali voqelanadi. Demak, konseptni o'rganish orqali biz nafaqat tilning leksik boyligini, balki xalqning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy ongini ham tahlil qilish imkoniga ega bo'lamiz.

Axloqiy qadriyatlar tizimida "halollik" va "o'g'rilik" kabi antonim konseptlar alohida o'rin tutadi. Ular qadim zamonlardan beri jamiyatning ma'naviy mezonlari sifatida shakllanib kelgan. Halollik qadriyati ko'plab millatlarda poklik, adolat, ishonchlilik va vijdonlilik bilan bog'liq bo'lsa, o'g'rilik tushunchasi insofsizlik, yolg'on, jinoyat va jamiyatga zarar yetkazish bilan chambarchas bog'liq. Har bir xalq bu konseptlarni o'z madaniy tajribasi va ijtimoiy hayotida turlicha ifodalaydi. Shu bois ularni qiyosiy-lingvistik jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va sotsiologiya uchun ham dolzarbdir.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan og'zaki ijodi va yozma adabiyotida halollik konsepti eng yuksak insoniy fazilat sifatida ulug'lanadi. "Halol mehnat – shirin mehnat", "Halolning qo'li uzun bo'ladi" kabi maqollarda bu tushuncha xalq donishmandligi orqali tasdiqlanadi. Badiiy adabiyotda, xususan, Alisher Navoiy asarlarida to'g'rilik va diyonat inson kamolotining eng muhim sifatlari sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, o'g'rilik va insofsizlik salbiy obrazlarda namoyon etilib, jamiyat tomonidan qoralangan.

Ingliz tilida esa honesty, truthfulness, integrity kabi tushunchalar halollik konseptining asosiy verbalizatorlari hisoblanadi. Ingliz madaniyatida ham halollik shaxsiy ishonchlilik va ijtimoiy shaffoflikning muhim mezon sifatida qaraladi. Mashhur ingliz maqollaridan biri – “Honesty is the best policy” – halollikni universal hayotiy tamoyil sifatida ifodalaydi. Shu bilan birga, theft, robbery, fraud kabi birliklar o‘g‘rilik konseptini ifodalab, salbiy qadriyat sifatida keng qo‘llanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli xalqlarning axloqiy qadriyatlarini lingvomadaniy jihatdan o‘rganish yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki xalqlararo muloqotda nafaqat so‘zlarning to‘g‘ri tarjimasini, balki ular ortida yashiringan madaniy mazmunni ham tushunish zarur. Masalan, ingliz tilida honesty ko‘proq shaxsiy obro‘ va ishonchlilikni anglatgan bo‘lsa, o‘zbek tilida halollik ijtimoiy hamjihatlik va diniy-axloqiy me‘yorlar bilan chambarchas bog‘langan. Bu farq madaniy tafovutlarning tilga qanday ko‘chishini ko‘rsatib beradi.

Shu sababdan mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida halollik va o‘g‘rilik konseptlari qiyosiy-lingvistik tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ushbu konseptlarning:

- lingvomadaniy mohiyati;
- sinonimik qatori va semantik maydoni;
- antonimik munosabatlari;
- badiiy, publitsistik va og‘zaki nutqda qo‘llanishi;
- etimologik ildizlari va xalq og‘zaki ijodida ifodalanishi
- alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur konseptlarning ingliz va o‘zbek til manzarasida o‘xshash va farqli jihatlari yoritiladi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat lingvomadaniyatshunoslik va konseptologiya nazariy asoslarini boyitadi, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir. Chunki halollik va o‘g‘rilik konseptlarini qiyosiy tadqiq etish tarjima-shunoslikda ekvivalent birliklarni topish, ta‘lim jarayonida til va madaniyatni integratsiyalash, shuningdek, xalqaro muloqotda madaniyatlararo farqlarni hisobga olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Lingvomadaniy mohiyat. Har qanday xalqning madaniy hayotida halollik va o‘g‘rilik tushunchalari jamiyatning ma‘naviy-axloqiy mezonlarini belgilovchi asosiy qadriyatlardan hisoblanadi. O‘zbek tilida “halollik” diniy va axloqiy manbalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, islomiy ta‘limotda halol mehnat va halol rizq eng yuksak qadriyat sifatida e‘tirof etiladi. Shu bois “halol” so‘zi faqat insoniy fazilatni emas, balki diniy me‘yorni ham anglatadi. Masalan, “halol mehnat”, “halol luqma”, “halol niyat” kabi birikmalar xalq ongida ma‘naviy poklikning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi.

Ingliz tilida esa “honesty” tushunchasi diniy asoslardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy va shaxsiy obro‘ bilan bog‘lanadi. Ingliz madaniyatida halollik insoniy ishonchlilik, rostgo‘ylik va o‘z so‘ziga sodiqlik bilan chambarchasdir. Mashhur ingliz maqollaridan biri: “Honesty is the best policy” (Halollik eng yaxshi siyosatdir) mazkur qadriyatning jamiyat ongida qay darajada muhim ekanini ko‘rsatadi.

O‘g‘rilik konsepti esa har ikki tilda ham salbiy qadriyat sifatida talqin etiladi. O‘zbek tilida “o‘g‘rilik” nafaqat moddiy mulkni noqonuniy egallashni, balki “ilm o‘g‘riligi”, “vijdon o‘g‘riligi” kabi majoziy ma‘nolarni ham anglatadi. Ingliz tilida esa “theft”, “robbery”, “fraud” kabi so‘zlar o‘g‘rilikning turli ko‘rinishlarini bildiradi. Demak, har ikki til madaniy manzarasida bu tushunchalar axloqiy chegaralarning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi.

2. Struktur-semantik jihatlar. Halollik va o'g'rilik konseptlari til birliklari orqali semantik maydon hosil qiladi. O'zbek tilida halollik konsepti "poklik", "to'g'rilik", "rostgo'ylik", "diyonat", "vijdonlilik" kabi sinonimik qatorni o'z ichiga oladi. Bu so'zlarning barchasi ijobiy baho bilan qo'llanadi va shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati, halolligi, pokligi bilan bog'liq. Masalan:

"Halol odamning yuzi yorug' bo'ladi."

"Diyonatli inson jamiyatning tayanchidir."

Ingliz tilida esa honesty konsepti "truthfulness", "integrity", "sincerity", "decency" kabi birliklar bilan sinonim bo'lib, ular ham shaxsiy axloqiy poklikni ifodalaydi. Masalan:

"A man of integrity gains respect everywhere." (Halol inson hamma joyda hurmat topadi.)

O'g'rilik konsepti esa salbiy semantik maydon hosil qiladi. O'zbek tilida "o'g'ri" so'zi bilan "qaroqchi", "bosqinchi", "firibgar", "xiyonatkor" kabi birliklar sinonimik qatorni tashkil etadi. Ingliz tilida esa "thief", "robber", "burglar", "swindler" kabi so'zlar mavjud bo'lib, ular o'g'rilikning turli ko'rinishlarini bildiradi. Bu birliklarning semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala til ham o'g'rilikni axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga zid xatti-harakat sifatida talqin etadi.

3. Funksional-stilistik qo'llanish. Halollik va o'g'rilik konseptlari tilning barcha funksional uslublarida keng qo'llanadi.

Badiiy uslubda halollik qahramon obrazida yuksak insoniy fazilat sifatida ifodalanadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida halol mehnat va diyonat insoniy kamolotning muhim sifatleri sifatida tasvirlanadi. Ingliz adabiyotida esa Ch. Dikensning qahramonlari ko'pincha halollik va insofsizlik orasidagi kurashni ifodalaydi.

Publitsistik uslubda halollik siyosiy yetakchilar yoki davlat xizmatchilarining eng muhim sifatlaridan biri sifatida tilga olinadi. Masalan, o'zbek matbuotida "halol xizmat", "halol rahbar" kabi birikmalar tez-tez uchraydi. Ingliz matbuotida esa "honest leadership", "honest politician" iboralari shunga o'xshash vazifani bajaradi.

Og'zaki nutqda halollik va o'g'rilik ko'pincha maqol-matalar orqali ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida: "Halolning qo'li uzun bo'ladi", "O'g'ri bo'lsa ham odobli bo'l", ingliz tilida esa: "You may cheat the law, but you cannot cheat your conscience." (Qonunni aldashing mumkin, lekin vijdoningni aldolmaysan).

4. Qiyosiy tahlil. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida halollik va o'g'rilik konseptlari o'xshashliklarga ham, farqlarga ham ega. O'xshashliklar:

Har ikki tilda halollik jamiyat tomonidan ijobiy baholangan eng yuksak axloqiy fazilat hisoblanadi.

O'g'rilik esa har doim salbiy bahoga ega bo'lib, jamiyat me'yorlariga zid sifatida talqin etiladi.

Har ikkala madaniyatda ham halollik va o'g'rilik badiiy adabiyot va folklorda keng verbalizatsiya qilingan.

Farqlar: O'zbek tilida halollik konsepti diniy-axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan bo'lsa, ingliz tilida u ko'proq shaxsiy obro' va ijtimoiy ishonchlikka urg'u beradi.

Ingliz tilida honesty ko'proq shaxsiy mas'uliyat va shaffoflikni bildirsa, o'zbek tilida halollik ijtimoiy hamjihatlik va diniy me'yorlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek tilida o'g'rilik tushunchasi ko'pincha keng majoziy ma'noda qo'llansa ("ilm o'g'riligi", "ko'ngil o'g'riligi"), ingliz tilida esa ko'proq huquqiy va ijtimoiy kontekstdagi ma'nolar ustunlik qiladi.

5. Etimologik ildizlar va folklordagi ifodalanishi. Halollik va o'g'rilik konseptlarining tarixiy ildizlarini ham o'rganish muhim. "Halol" so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "shariatga muvofiq", "pok" ma'nosini bildiradi. Bu so'z o'zbek tilida kengaygan holda, faqat diniy emas, balki umumiy axloqiy fazilat sifatida qo'llanadi. "O'g'ri" esa qadimiy turkiy ildizga ega bo'lib, dastlab moddiy mulkni yashirincha o'g'irlovchini bildirgan.

Ingliz tilidagi "honest" so'zi lotincha honestus ("sharafli, munosib") so'zidan kelib chiqqan bo'lsa, "thief" so'zi qadimgi germancha theuban (o'g'irlash) fe'lidani kelib chiqqan. Demak, har ikkala til konseptlari qadimdan jamiyatning axloqiy-ijtimoiy hayotida muhim bo'lganini ko'rish mumkin.

Folklorda ham mazkur konseptlar keng ifodalangan. O'zbek xalq maqollarida halollik mehnatsevarlik va to'g'rilik bilan uyg'unlashtirilsa, o'g'rilik jamiyatni yemiruvchi illat sifatida talqin etiladi. Ingliz xalq maqollarida esa honesty shaxsiy muvaffaqiyat va ishonchlilikning asosi sifatida ulug'lanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "halollik" va "o'g'rilik" konseptlari jamiyatning axloqiy mezonlarini belgilovchi asosiy tushunchalardan hisoblanadi. Har ikki madaniyatda halollik eng yuksak insoniy fazilat sifatida qadrlansa, o'g'rilik ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarga zid salbiy hodisa sifatida talqin etiladi.

O'zbek tilida halollik konsepti diniy-axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mehnatsevarlik va diyonat tushunchalari bilan uyg'unlashadi. Ingliz tilida esa honesty ko'proq shaxsiy obro', rostgo'ylik va ijtimoiy shaffoflikni bildiradi. Bu esa madaniy tafovutlarning tilga qanday ko'chishini ko'rsatib beradi.

O'g'rilik konsepti ham har ikki tilda umumiy salbiy mazmunni anglatadi, ammo ularning qo'llanishida farqlar mavjud: o'zbek tilida u ko'proq majoziy ma'noda kengaygan bo'lsa, ingliz tilida huquqiy va ijtimoiy kontekst ustunlik qiladi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillarida halollik va o'g'rilik konseptlarini qiyosiy o'rganish lingvomadaniyathunoslik, tarjimashunoslik va xalqaro muloqotda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari nafaqat konseptologiya nazariyasini boyitadi, balki til va madaniyatni integratsiyalash, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YAXATI:

1. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – М.: Языки славянской культуры, 2004.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.
4. Хожиев А. Изоҳли луғат. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
5. Нурмонов А. Семасиология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
6. Navoi, Alisher. Xamsa. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
7. Dickens, Charles. Oliver Twist. – London: Bentley, 1838.
8. Oxford English Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 2019.
9. Uzbek National Corpus. – Tashkent: UzAS, 2020.
10. Proverbial Wisdom: English and Uzbek Proverbs Compared. – Tashkent: Fan, 2015.